

“MUBTALO”DA NAFS MASALASI TALQINI.

Toshpo'latova Dilchehra Azamat qizi

Guliston davlat universiteti 70230104-Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) yo'nalishi II-kurs magistranti. Elektron manzil dilchehratoshpolatova9904@gmail.com

O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Cho'lpon o'zining “Adabiyot nadir?” maqolasida “Adabiyot yashasa, millat yashar”, – der ekan, badiiy asarda xalqning orzu-umidlari, dard-u xasratlari haqqoniy tasvirlanib, inson ma'naviyati, xis-tuyg'ulariga beqiyos ta'sir ko'rsatishini aytib o'tadi.

“Chinakan badiiy realistik asarda jamiyat ma'naviyatini boyituvchi mard, olijanob insonlar ham, aksincha, jamiyatni tanazzulga yetaklovchi, ta'magir, ochko'z, munofiq, tuban fe'l-atvorli odamlar ham tasvirlanadi”¹. Abduqayum Yo'ldoshevning “Mubtalo” hikoyalar to'plamidan o'rin olgan qator hikoyalar misolida ham ma'naviy jihatdan tuban, o'z nafsini yo'lida hech narsadan toymaydigan, yolg'onni rostdek aytuvchi, o'zidan “bechora” yasab olib atrofida qilarni yolg'on ko'z yoshlariga ishonitiruvchi soxtakashlar obrazini ko'rishimiz mumkin.

To'plamdan o'rin olgan “Vido ziyofati” hikoyasiga to'xtaladigan bo'lsak, asar talabalar hayoti tasvirlanadi. Hikoyachi qahramon o'zi bilan birga o'qigan kursdoshining bir umr yolg'on ortidan kechgan hayotini cheksiz nafrat bilan hikoya qiladi. Butun talabalik yillari davomida kayf-u safoga berilib, o'qishni unutgan asar qahramoni Hamid universitetni bitirish arafasida o'zining bedavo dardga duchor bo'lgani, umid yo'qligini aytib barcha kursdoshlaridan rozi-rizolik so'rab chiqadi:

“Yuragim “shuv etib ketdi. Zero, uning so'zlarida mislsiz g'ussa, alam, ayni paytda, abadul-abad davom etadigan ayriliq onlari yaqinligini his etgan, bunga sira-sira ishongisi kelmayotgan bandaning ojizona isyoni bordek edi.

Shundan keyin yangragan jumla taxminimni tasdiqlaganda-yu bo'ldi:

– Umid yo'q, birodar...”²

Uning ahvoliga achingan kursdoshlari qo'ldan kelgancha yigitga yordam berishga, ko'nglini ko'tarishga harakat qilishadi. O'quv yillari davomida olinmasdan qolgan baholarini olishga, diplom ishisini yozishga, hatto moddiy jihatdan ham yordam berishga harakat qilib oxirgi stipendiyalarini yigitlar to'liq, qizlar yarmini unga yig'ib berishadi. Yigit esa yig'ilgan mablag'ni sarf etib kursdoshlariga “vido ziyofati” tashkillashtirib beradi. Tabiatan ichkilikka o'ch bo'lgan yigit mast bo'lib qolib hayotdan bevaqt ketayotganligini aytib kursdoshlarining rahmini keltiradi. Kursdosh qizlar orasida ayniqsa, eng ko'zga yaqini bo'lgan Shahlo ismli qiz boshqa qizlarga qaraganda nisbatan ta'sirchan bo'lib, yigitga yurakdan achinib ko'z yosh to'kadi. Muallif qiz portretini quyidagicha chizadi:

“Guruhimizda Shahlo ismli qiz o'riqdi. Go'zal qiz edi bu Shahlo deganlari. Sarvqomad, yuzi sutga chayib olinganday oppoq, qoshlari qaldirg'och qanotiday, kipriklari quyuq va uzun-uzun. Ko'zlari esa... bu ko'zlar go'dak bolanikidek beg'ubor edi. Shahloning o'zi ham go'dak singari sodda va ishonuvchan edi”³.

¹ To'rayev D. Ma'naviy olam talqinlari. – T. Akademnashr, 2020. B.151

² Yo'ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T. Yangi asr avlodi, 2021. – B.166.

³ Yo'ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T. Yangi asr avlodi, 2021. – B.177

Asar qahramoni Hamid qizning soddaligidan foydalanib “vidolashish” maqsadida qizning xonasiga kirib uning nomusiga tegadi. Voqealarni hammasiga o‘z ko‘zlari bilan guvoh bo‘lib turgan hikoyachi qahramon yigit Abduvali shu kundan boshlab do‘stidan nafratlana boshlaydi. Hikoyaning shu joyida Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida qayta-qayta uchraydigan loqaydlikka guvoh bo‘lamiz. Aslida esa adabiyotshunos H. Umurov aytganidek, yozuvchining tasvirlanayotgan voqea va qahramonlarga loqaydligi, betarafligi – haqiqiy loqaydlik, betaraflilik emas, balki o‘quvchining fikrini faollashtiruvchi, qalb zarbini harakatga keltiruvchi vositadir. Obrazlar vositasida hayotning xolis (obyektiv) manzarasini tasvirlash – o‘z navbatida keragi bo‘lmagan (o‘quvchi biladigan, ammo sevmaydigan) poetikani, didaktikani quvib chiqaradi. Hayot borligicha, o‘z-o‘zidan kitobxon ko‘z o‘ngida namoyon bo‘laveradi. Bu tabiiyki, kitobxonda muallif fikriga va g‘oyasiga to‘liq ishonchni yuzaga chiqaradi. Ko‘rinadiki, muallif hech vaqt tasvirlangan masala haqida o‘z fikrini ochiq aytmaydi, balki aytmoqchi bo‘lgan fikrini kitobxonning o‘zi chiqarishiga imkon yaratadi. O‘quvchi esa hikoyachi qahramonning ko‘z o‘ngida bo‘layotgan holatda bee’tibor qaramasdan qizni makkor do‘stining changalidan qutqarib qolganda begunoh qiz sakkiz oylik homilani dunyoga keltirish chog‘ida bevaqt nobud bo‘lmisligi haqidagi xulosani o‘zi chaqib oladi.

Hikoyaning davomida Hamid do‘stlari va ustozlarining rahm-u shafqatidan faqat o‘z manfaati yo‘lida foydalanib “Hashar” yo‘lida yozilgan diplom ishini ishtirok etmasdan ham himoya qilib, diplomini hammadan birinchi, a’lo baholardan olib ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Oradan yetti yil o‘tib hikoyachi qahramon Abduvali Hamidga yana duch keladi. Muallifning shu o‘rinda hikoyada ishtirok etgan ikki qahramonning hayotda tutgan mavqeyini bir-biriga kontrast (qarama-qarshi) qo‘yishi Hamidning fojiasini yanada teranroq ochib berishga yordam beradi. Bu safar yigitlar orasidagi farq ancha katta: yigitlardan biri texnolog, sex boshlig‘i, bosh texnolog darajasidan bosh muhandis darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, ikkinchisiga muallif quyidagicha ta’rif beradi:

“E, o‘zi bir alkash, – dedi hamkasbim jahl bilan. – ichgani aroq-vino. O‘zi institutni bitirgan, diplomiyam bor. Lekin ishni eplolmadi, pasayib-pasayib, oxiri qora ishchi bo‘lib qoldi. Bo‘shatib yuboraylik desak, og‘ir kasal ekan, bechoraning ko‘pi bilan ikki-uch oylik umri qolgan, deyishipti vrachlar. Shunga moddiy yordam ham berdik. Buni qarang shu odamning xotini o‘lib qolibdi. O‘zining ikki-uch oylik umri qolgan bo‘lsa... achinadi-da odam...”⁴

Butun umri davomida yolg‘onchilik ortidan kun kechirgan yigitning fojiasini kursdosh do‘stining mavqeyi bilan solishtirganda sezishimiz mumkin. Bunda obrazga na jamiyat, na vaziyat ta’sir etdi. Balki obraz tabiatidagi yolg‘onga moyillik, ishyoqmas, dangasalik kabi odatlar uning umri davomida gadodek xorlikda yashashga mahkum etadi. Bundan tashqari undagi bu illatlar atrofidagi insonlarga ham zarar olib keladi. “O‘pkada to‘plangan suv” va “uch oylik qolgan umr” yolg‘oni bilan qurollangan obraz atrofdagilarning muravvat va shafqati ostida kechirgan umri atoqli turk yozuvchisi Aziz Nesinning “Keyin xursand bo‘lasiz” hikoyasiga jumlalarning takroriy qo‘llanilganligi jihatidan ikki tomchi suvdek o‘xshaydi. Aziz Nesinning hikoyasida tavsirlangan qahramon har gal “gap bor”, “keyin xursand bo‘lasiz” jumalaridan g‘oyat jiddiylik bilan foydalanib vaziyatdan oson chiqib ketadi. Voqealar zanjiri uch kunlik tanish bo‘lgan qizning nomusi toptalishi, gazlama do‘konidan bir to‘p matoni olib

⁴ Yo‘ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T. Yangi asr avlodi, 2021. – B.181

chiqib ketilishi, konduktordan pul solingan xaltani tortib olinishi, qamoqxonadagi qochish voqealari bilan davom etib o'quvchi qalbida yengil yumor uyg'otsa-da, tag zahirida fojia, sodda xalqning ustidan kulib qilingan jinoyatlarga ishoradir. Garchi ikkila hikoya ham jumlar takror qo'llanishi, har gal ko'rsatilgan "bahona" ish berishi (nomusi toptalgan qiz) jihatidan bir-biriga o'xshab ketsa-da, tasvir yo'sini va so'z qo'llash mahorati hamda usub masalasi o'ziga xosdir. Zero, badiiy ijodning imkoniyatlari nihoyatda katta. San'at bunyod bo'lgandan boshlab san'atkorlar ijod qiadilar, lekin bir-birlarini takrorlamaydilar. "Har bir san'atkor, o'z ovozigaga bo'lganidek, har bir san'at asari o'ziga xos yo'l bilan yaratiladi".⁵ Bundan tashqari har biri o'z jamiyatida mavjud bo'lgan bir tabaqaning fojiasini ochib berishga xizmat qilgan.

Ijodkorning yuqoridagi to'plamda o'rin olgan yana bir hikoyasi "Pul jodusi"da nafs ortidan kelgan fakolat tasvirlanadi. Asarda yaqinda qisqartirish sabab ishidan ajralib, ijaraga olgan mashinasida kirakashlik qilib yurgan yigit Sodiq do'sti bilan hazillashmoqchi bo'lib mast do'stining tilla buyumlari bilan pulini "o'g'irlab" oladi. O'g'irlab so'zining qo'shtirnoq ichida berishimizga sabab yigit boshida bu ishga o'g'irlik deb emas, shunchaki do'stiga dars berib qo'yish maqsadida qo'l urgan edi. Ya'ni choyxona desa o'zini tomdan tashlaydigan, aroqni ko'rsa, bir chaqirim naridan yugurib keladigan do'sti Isomiddin deyarli har kuni uyiga mast holda qaytar, ayolining qo'polligidan uni yetaklab kelgan ulfatlaridan biri xotinning javrashidan bezor bo'lib eshik qo'ng'irog'ini jiringlatib o'zlari qochib qolardilar. Shunday kunlarning birida asar qahramoni Sodiq do'stining mast holda yotganini ko'rib unga yordam berish maqsadida mashinasidan tushadi. Biroq uyda odam bo'lmaganidan eshikni hech kim ochmaydi. Mast o'rtoqning bo'ynidagi tilla zanjir-u qo'lidagi tilla soat hamda uzukni yechib oladi. Ertasiga ustidan kulib bermiqchi bo'ladi. Sodiqda do'stiga nisatan hasad tuyg'usining borligini muallif quyidagicha tasvirlaydi.

"Bo'lmasa moyligina joyda ishlaydi - avtoyoqilg'i quyish shoxobchasida operator, birodarlar uni "zapravkachi" deb atashadi. Ishiga yarasha topadiyam. Aytishlaricha, bir sutka ishlab, ikki sutka dam oladigan bu yigit bir navbatchiligining o'zida ellik ming so'mga yaqin toparkan. Toza, qo'lga tegadigani.

Sodiq ba'zan g'ayirlik qiladi: tong sahardan ketib, yarim kechasi horib-charchab, bo'yin tomirlari, yelkalari qotib, burni yerga tekkuday bo'lib qaytib keladi-yu, qo'lida o'n ming so'mdan ortiq sof daromad qolmaydi. Isomiddinga o'xshaganlar esa bir sutka yalpayib o'tirgani evaziga shuncha topsa-ya...".⁶

Ertasiga ham, indiniga ham vaqt topib bora olmagan Sodiq uch kundan so'ng do'stining oldiga boradi. Biroq ichidagi nafs tuyg'usi tillalarni bermaslikka undaydi. Shuning uchun do'stiga yo'qolgan mollarni topib beradigan tanishlari borligiga ishonirib bahonada pul undirib olishni niyat qiladi. Yo'qolgan buyumlar orasida ayoli sovg'a qilgan soat borligi, uni topmasdan uyga borolmasligini anglagan yigit durustgina pul va'da qiladi. O'ylagan topgan rejasidan mamnun bo'lgan Sodiqning nafi yana uyg'onadi. Taklif qilingan pulning evaziga tillalarni sotib, pulning hammasini o'zida qoldirishni diliga tugadi. Buning uchun bahona ham topib o'ziga taskin beradi. Muallif shu o'rinda ichki kolleziya orqali obrazning o'zi bilan o'zi kurashini ochib beradi. Qahramonning psixologik holatini quyidagicha tasvirlaydi:

⁵ Qo'shjonov M. Hayot va nafosat. – T. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970 – B. 57

⁶ Yo'ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – T. Yangi asr avlodi, 2021. – B. 157

“Tuni bilan turli xayollarga borib, uxlay olmay, to‘lg‘onib chiqqan Sodiq tong sahar boshi g‘uvlab o‘rnidan turdi.

Uch yuz o‘ttiz besh ming... Yaxshi. Lekin...mobodo.... bir millionning o‘zi bo‘lsami... Yangiroq “Jiguli” olsa bo‘lardi. Eskini yamab esing ketguncha....O‘zi benzinni urib qolish evaziga kelgan bo‘lsa... Yana topadi, oladi.... Bundan ham zo‘rini...”⁷

Seziladiki, yigit harom ortidan kelgan boylik do‘stiga buyurmaganini ko‘rdi-yu o‘ziga ham baraka olib kelmasligini o‘ylab ko‘rmadi. Natijada u bezori yo‘lovchilar tomonidan ayanchli o‘lim topdi.

Muallif qahramon fojiasini oldindan uning o‘ziga tilanchi epizodi orqali ma’lum qiladi. Ayni shu o‘rin qadimdan xalqimizda mavjud bo‘lgan “sadaqa raddi balo”, ya’ni sadaqa yomonliklar yo‘lini to‘sadi, degan qarashni tasvirlashga yordam beradi. Bundan tashqari keltirib o‘tilgan fol bashorati, uning amalga oshishi holatlari Edip fojiasini esga soladi. Bashoratning esa amalga oshishi aniq.

Zero, inson peshonasiga yozilganidan qochib qutila olmaydi. Biroq nafsning qutqusiga uchib oson kelgan boylik ortidan quvgan asar qahramoni Sodiqning fojiasiga yolg‘iz o‘zi aybdor.

Abduqayum Yo‘ldosh ijodida takror va takror uchraydigan holatlardan yana biri shuki, anglashdagi chalkashlik, ya’ni ijodkor tasvirlayotgan obraz haqiqatda pok, sofdil bo‘lsada, atrofidagilar uni noto‘g‘ri tushunadi va qoralaydi (“Bozor”, “Parim bo‘lsa” hikoyalari misolida) yoki aksincha g‘arazgo‘y, ichi bilan tashqi ikki xil bo‘lgan riyokor kimsalarni pokdamon deb o‘ylaydi. “Pul jodusi” hikoyasi tasvirning ikkinchi turiga mansubdir.

Hikoyaning oxirida ham Sodiqning fojiasi do‘sti Isomiddin tomonidan “Buyuk sadoqat” deb baholanadi. Chunki uning ariqqa otib yuborilgan jasadining orqa cho‘ntagidan do‘stining tilla soati chiqadi. Aslida soat o‘rtog‘ining o‘zi tomonidan o‘g‘irlangani yetti uxlab tushiga kirmagan Isomiddin barcha fojiada o‘zi aybdor sezib vijdon azobida qoladi. Sababi unga soatni topib berishni va’da qilgan do‘stini bezorilar shu soat uchun o‘ldirdi, deb o‘ylaydi.

Muallifning asar qahramoniga “Sodiq” deb nomlanishida ham asli kinoya, kesatiq mujassamdir. Bunda ism ma’lum bir ma’no anglashda yordam beradi. Ammo masalaning asl mohiyati bo‘lgan tasvirdagi fojiaviylikka qaytadigan bo‘lsak, Abduqayum Yo‘ldoshning mazkur hikoyasi asar oxiri o‘lim bilan yakunlanishi jihatidan boshqa hikoyalardan ajralib turadi.

O‘lim asli fojia emas, balki qahramonni o‘rtoqlari orasida sharmandalikdan asrab qoluvchi vosita vazifasini bajaradi. Asil fojia bu yerda do‘stning haqqiga qilingan xiyonatdir. Umuman olganda, hikoya pandnoma ruhida yozilgan bo‘lib, o‘quvchiga yomonlik jasosiz qolmasligi haqidagi xulosani beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Quronov D. (2013) Adabiyotshunoslik lug‘ati, T- “Akademnashr
- 2.Boboyev T. (2002) Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent – “O‘zbekiston”.
3. Yo‘ldoshev A . Aybdor hikoya Ziyouz.com kutubxonasi
4. Qo‘shjonov M. Hayot va nafosat. – T. G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va va san‘at.

1970

⁷ O‘sha manba 159-b

5.Yoʻldoshev A. “Puankare” hikoya “Jahon adabiyoti” jurnali. 2012, 9-son

6.Yoʻldoshev A. (2021) Mashaqqatlar osha yulduzlar sari.: “Yangi asr avlodi”